



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

O‘RGANILAYOTGAN SIGIRLAR ELININING MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

M. A. Nortasheva¹ O‘. Toshtemirov² S. Nurmuhammedov³

Assistent. Samarqand Veterinariya medisinasini instituti¹

Samarqand Veterinariya medisinasini instituti talabalar^{2,3}

INFO:

Qabul qilindi: 26.02.2022

Ko‘rib chiqildi: 01.03.2022

Chop etildi: 02.03.2022

ANNOTATSIYA

Olib borilayorgan ilmiy tadqiqodlarda sigirlar elinining morfo-funksional xususiyatlari ham o‘rganilib bormoqda.

Kalit so‘zlar: elin hajmi, shakli,
so‘rg‘ichlar shakli va kattaligi,
elin indeksi, sut berish tezligi.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Ma’lumki, bugungi kunda sog‘in sigirlarning takomillashishiga muhtoj bo‘lgan seleksion belgilardan biri ularning elini hisoblanadi. Chunki, mashinada sog‘ish uchun elin hajmi, shakli, so‘rg‘ichlar shakli va kattaligi, elin indeksi, sut berish tezligi, sog‘ish vaqt va boshqa ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, elining eng muhim morfologik belgisi uning shakli hisoblanadi. Sigirlarning elini o‘zining shakliga qarab, tossimon, kosasimon, yumaloq, echki va ibridoib elinlarga bo‘linadi. Tossimon elin xajmining kattaligi, oldinga va orqaga qarab yaxshi rivojlanganligi, elin tagining tekis bo‘lishi, bo‘laklarining mos ravishda teng rivojlanganligi, so‘rg‘ichlarini bir-birovidan ma’lum bir masofada joylashganligi bilan ajralib turadi.

Kosasimon elin xajmi katta hamda sigir tanasiga mustahkam birikkan bo‘ladi. Bunday shakldagi elinlarda oldingi va orqa bo‘laklar bir-biriga teng rivojlangan bo‘lib, so‘rg‘ichlari ancha keng

joylashgan va to‘g‘ri o‘rnashgan bo‘ladi.

Yumaloq elin biroz kichikroq hajmda bo‘lib, uning bo‘laklari pastga qarab yaxshi rivojlangan. Lekin, elinning tanaga birikish maydoni biroz kichikroq bo‘ladi.

Echki elin sigir tanasiga noqulay birikkanligi, oldingi bo‘laklarini, orqa bo‘laklariga qaraganda o‘ta rivojlanganligi, so‘rg‘ichlarning notekis va bir-biroviga zikh joylashganligi bilan ajralib turadi.

Ibtidoiy elinni xajmi juda kichik bo‘lib, ularni bo‘laklari yaxshi rivojlanmagan, so‘rg‘ichlari bir-biroviga echki elindan ham zikh joylashganligi bilan ajralib turadi.

Vannasimon va kosasimon elinli sigirlarni mashinada sog‘ish samarali hisoblanadi, echki va ibtidoiy elinli sigirlar mashinadi sog‘ish uchun yaroqsiz hisoblanadi.

P.Sobirov va boshqalarning (2003) ma’lumotiga qaraganda, qora-ola zotiga mansub 110 bosh sigirni 56 bosh yoki 50,9 foizi kosasimon, 43 boshi yoki 39,1 foizi yumaloq va 11 boshi yoki 10 foizi echkisimon shakldagi elinga ega bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 110 bosh qizil cho‘l zotli sigirlarda tegishlicha: 47 bosh yoki 42,7 foiz, 48 bosh yoki 43,6 foiz va 15 bosh yoki 13,6 foizini hamda 103 boshli shvits zotli sigirlarning 42 boshi yoki 40,8 foiz, 48 bosh yoki 46,6 foiz va 13 bosh yoki 12,6 foiziga teng bo‘lgan. Ularning sut sog‘imi laktatsiya davrida mutanosib ravishda 2980, 2786, 2252; 2750, 2380, 1900 va 2450, 2032, 1750 kg ni tashkil qilgan. Bu ma’lumotlar sigirlar elinining morfologik tuzilishi bilan sut sog‘imini o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligidan dalolat beradi.

Tajriba uchun olingen sigirlarning elinini shakli bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganilganda, I guruhdagi sigirlarni 3 boshi tossimon, 5 boshi kosasimon va 2 boshi dumaloq; II guruhdagilarda bu nisbat 4, 5, 1 boshga teng bo‘lgan.

Tajribadagi barcha guruhlarga mansub sigirlarning elinini morfo-funksional ko‘rsatkichlarini o‘rganib, olingen natijalarni quyidagi jadvalda keltirdik.

Jadval ko‘rsatkichlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tajriba guruhidagi sigirlar elinlarning texnologik belgilari sigirlarning konstitutsiya tipi bo‘yicha bir-birovidan farq qilgan. Bunda qon ulushi golshtin zoti bo‘yicha yuqori bo‘lgan II-guruhdagi sigirlarning texnologik belgilari o‘z tengqurlari I guruhdagi sigirlarga qaraganda ustun bo‘lgan.

1-jadval. Tajribadagi sigirlarning elinini morfo-funksional ko‘rsatkichlari, sm.

Ko‘rsatkichlar	Guruhanlar	
	I	II
	X±Sx	X±Sx
Elin aylanasi	120,3±0,21	122,9±0,10
Elin uzunligi	34,6±0,17	35,4±0,11
Elin eni	36,8±1,55	29,9±0,13
Elinning oldingi qism chuqurligi	29,5±0,01	27,9±0,04
Elinning orqa qism chuqurligi	27,5±0,16	29,4±0,21
Elinning shartli hajmi, sm3	986,46±0,16	1012,6±5,73
Elinning oldingi so‘rg‘ichlar uzunligi	8,2±21,5	8,24±0,011
Elinning orqa so‘rg‘ichlar uzunligi	8,18±0,012	7,59±0,0042

So‘rg‘ichlar diametri	$7,52\pm0,045$	$7,40\pm1,13$
Elin indeksi, %	$43,6\pm0,0043$	$43,5\pm0,0038$
Sut berish tezligi, kg/daq	$1,26\pm0,10$	$1,23\pm0,10$

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, elinning aylanasi bo‘yicha, II guruhdagi sigirlar I guruhdagi tengqurlarini 2,6 sm yoki 2,1 foiz, elin uzunligi bo‘yicha 0,7 sm yoki 2,3 foiz, elin eni bo‘yicha 0,03 sm yoki 0,2 foiz, elinning oldingi qism uzunligi bo‘yicha 0,03 sm yoki 0,2 foiz, elinning orqa qism uzunligi bo‘yicha 0,2 sm yoki 0,7 foiz, elinning shartli xajmi 26,14 birlikda yoki 2,36 foiz, elinning oldingi so‘rg‘ichlari uzunligi bo‘yicha 0,04 sm yoki 0,49 foiz, elinning orqa so‘rg‘ichlar uzunligi bo‘yicha 0,59 sm yoki 7,2 foiz, so‘rg‘ichlar diametri bo‘yicha 0,12 sm yoki 1,6 foiz, elin indeksi bo‘yicha 0,1 sm yoki 2,3 foiz, sut berish tezligi bo‘yicha 0,1 kg/daq yoki 8,4 foiz ustivorlik qilishgan.

Bizning tadqiqotlarimizda olingan natijalar I.M.Dunin (1980), A.V.Bakay va boshqalar (2013), M.S.Gabaeva va boshqalar (2013), U.N.Nosirov va boshqalar (2015), M.Ashirov (2017) larning ma’lumotlari olingen ma’lumotlariga to‘g‘ri kelishi bilan ajralib turadi.

Xulosa

Shunday qilib, olingan natjalarsigirlarni konstitutsiya tiplaridan qat’iy nazar, har ikkala guruhda ham talab darajasida bo‘lgan. Ammo, II guruhdagi sigirlar elinin morfo-funksional ko‘rsatkichlari bilan o‘z tengqurlari, I guruh sigirlaridan ustun bo‘lishgan.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. K. Kaxarov, E. S. Shaptakov, A. A. Xushvaqtov “Qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i chorvachilikning holati”. Fan yutuqlari va agrar soha istiqbollari.Sam.QXI ilmiy to‘plami. Samarqand 2013.180-186 b.
2. K.Xaydarov, B.YaxYaev, I.Qo'ziev. Sigirlarning mahsulot berish imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish-talabning qondirilishiga bog‘liq. Zootexniya.2012. №1.31-33 b.
3. U.N. Nosirov. Qoramolchilik. Toshkent.2001.364 b. 4. U.N. Nosirov, I.M.Maqsudov, M.X.Dusmuxamedova. O‘zbekistonda qoramolchilikni rivojlantirish omillari. Toshkent. 2011. 198 b.